

**Bo‘lg‘usi maktabgacha ta’lim tarbiyachilari orqali bolalarni badiiy
qobiliyatlarini rivojlantirishda Ozod Sharafiddinovning ijodiy merosini
ahamiyatni**

**Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura
Urganch davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi: Axmedova Gulnoza**

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularda vatanga bo‘lgan mexr-muxabbatni shakllantirishda adiblarimizning ijodiy merosi juda katta ahamiyatga ega. Bola o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda hamda badiiy-ijodiy qobiliyatları rivojlanishida Ozod Sharafiddinovning ijodiy merosini ahamiyati va dolzarbliги haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinci davr munaqqid faoliyatida asosiy davr bo‘lib, u istiqlol yillaridagi ijodini qamrab oladi. Bu davrda Ozod Sharafiddinov milliy adabiyotni shakllantirish muammolari, o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligin qayta qurish, jahon adabiyoti an’analarini o‘zlashtirish hamda tarjima san’atini yuksaltirish masalalarini tadqiq etgan.

Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan uyg‘un tarzda o‘rganish an’anasini boshlab bergan. Ozod Sharafiddinovning «Istiqlol fidoyilar» (1993), «Sardaftor sarlavhalari» (1999), «Ma’naviy kamolot yo‘llarida» (2001) kitoblarida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Otajon Hoshimov ijodi yangicha nuqtai nazardan tahlil etilgan. «Cho‘lponni anglash» (1993) asarida esa yangi o‘zbek tanqidchiligi 20-asrda bosib o‘tgan murakkab yo‘lni talqin, tahlil qilgan, ko‘plab munaqqidlar ijodi, estetik printsipini Cho‘lpon ijodiga munosabat nuktai nazaridan yoritgan.

Ozod Sharafiddinov ijodining cho‘qqisi «Ijodni anglash baxti» (2004) kitobidir. Unda o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o‘rni va ilmiy-ma’naviy o‘zanlari tadqiq etib berilgan. Ozod Sharafiddinov adabiyotshunos olim, tanqidchi va tarjimon bo‘lgan. U 1929-yilning 1-martida Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahriga yaqin bo‘lgan Oxunqaynar qishlog‘ida tavallud topgan. Avvaliga Toshkentdagi 14-o‘rtalik maktabni, undan so‘ng hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Moskvada esa, aspiranturani tugatgan va ilmiy darajani olgan. U adabiyotda salmoqli va takrorlanmas ijod qila

olgan. O‘zbek she’riyati va unga oid ham tanqidiy ham adabiy maqolalar yozgan. Uning ijodiga mansub:

Vatan-onas so‘zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo‘tabar aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o‘g‘il-qiz
Muqaddas, mo‘tabar, ulug‘ Vatanim,
O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Quyidagi misralarinining zamirida chuqur ma’no, o‘ziga xoslik va uslub mujassam. Ozod Sharafiddinovning ijodida so‘zlarning uyg‘unligi, ulardan to‘g‘ri foydalanish, oddiy so‘zlarda chuqur ma’no yaratish singari mahoratlarni guvohi bo‘lish shubhasiz. Adabiyotshunos, kuchli so‘z ustasi bo‘lgan va u deyarli hamma yo‘nalishlarda ijod qilgan. Ozod Sharafiddinov butun umri davomida vatanga sadoqat tuyg‘usi bilan yashagan. Ijodkor o‘zining to‘g‘ri so‘zi, irodasi va vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbbati orqali yurtimiz ravnaqi yo‘lida ko‘plab samarali ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan. Tarbiyachilar adiplarimizning ijodiy namunalari orqali bolalarda vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish bilan bir qatorda ularda diqqat, xotira, tafakkur tushunchalarini ham shakllantirishlari mumkin. Bo‘lg‘usi tarbiyachilar adabiyotimizdagi juda ko‘plab yozuvchilarimizning ijod xazinalaridagi turli xil ijod namunalari, ayniqsa yurt haqidagi asarlar bilan bolalarga ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanishlari zarur. Ozod Sharafiddinov ham mazmundor, ijod namunalaridan faoliyat jarayoniga tadbiq qilish zarur. Ya’ni olim o‘zbek adabiyotida alohida o‘z mavqeiga va o‘rniga ega bo‘la olgan shaxsdir. Adabiyotshunos vatan, yurt ravnaqi, yoshlar kelajagi uchun bir qancha qiyinchilik va mashaqqatli vaziyatlarga qaramay doimo oldinga intila olgan allomalardir. Shu sababli u o‘z tug‘yonlarini, kechinmalarini o‘z asarlari orqali bayon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagagi bolalarni vatanga muhabbatini oshirishda uning asarlari juda katta rol o‘ynaydi. Bo‘lg‘usi tarbiyachilarimiz ko‘zlagan maqsadga yetishlari uchun adiblar asarlaridan foydalansalar maqsadga muofiq bo‘ladi. Adibimizning asarlarining ko‘pchiligi har qanday holatlarda ham sabrli bo‘lib, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga undaydi.